

O'QUVCHILARDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN METOD VA USULLAR BAYONI

Olimova Barchinoy Orifjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

OlimovaB@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15469221>

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinib, ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirish faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmasligi, balki o'quvchilarning erkin fikrlashi, mantiqiy izchillikda ifoda qilish qobiliyatini ham o'stirishi zarurligi asoslab beriladi.

Annotation: The article analyzes effective methods for developing students' written communication skills. It substantiates the idea that enhancing written speech in mother tongue lessons should not be limited to grammatical knowledge alone, but must also foster students' ability to think freely and express ideas with logical consistency.

Kalit so'zlar: Yozma nutqni shakllantirish, ona tili darslari, o'quvchi faoliyati, kalit so'z metodi, fikr zanjiri, ijodiy fikrlash, mantiqiy izchillik, matn yaratish, nutqiy ko'nikma, fikr zanjiri, ijodiy yondashuv, matn tuzish, o'qitish metodikasi

Keywords: Development of written discourse, native language lessons, learner engagement, key word method, thought chain technique, creative thinking, logical coherence, text generation, speech competence, creative approach, text structuring, teaching methodology.

O'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish — ularning tilga oid nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, fikrni to'g'ri, aniq, mantiqiy va izchil bayon eta olish malakasini shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Yozma nutq — bu mustaqil, barqaror, izchil fikrlash mahsuli bo'lib, o'quvchining tafakkuri va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vositadir. Ona tili o'qituvchisining vazifasi nafaqat grammatik me'yorlarni o'rgatish, balki o'quvchini erkin fikrlashga, o'z qarashlarini asosli ifoda etishga o'rgatishdan iborat. Shu bois yozma nutqqa o'rgatishda zamonaviy, faol, o'quvchini ishtirokga jalb qiladigan metodlar zarur bo'ladi. Shu e'tiboridan bugunki kun talablariga javob bera oladigan, o'quvchini fikrlashga, salohiyatini oshirishga undaydigan metodlar ishlab chiqishga harakat qildim.

O'quvchilarda til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni fonetika, orfoepiya, leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni malaka talablarini rivojlantirish va takomillashtirishda esa ona tili o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Bu xususida psixolog olim E.G'oziyev shunday deydi: "O'smirning to'g'ri mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida ona tili va adabiyot o'qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o'quvchilarni to'g'ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritishga, yozish o'rgatib boradi". Demak, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida ona tili o'qituvchisi kontekstli o'qitish va zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga mazmunan va grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzishni, mustaqil fikr yuritishni hamda o'z fikr mulohazalarini og'zaki hamda yozma bayon qilishda olingan bilimlarni amalda qo'llay olishni o'rgatib boradi. Ona tili nafaqat barcha fanlarni o'zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonlarning o'zaro munosabatga kirishishida –

muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ona tili darslarida milliy til - ona tilini o'qitishda har bir sinfdagi o'quvchilar egallashi ko'zda tutilgan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt lisoniy ko'nikmasini, ya'ni nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha talab etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yori rivojlantirilib boriladi. Yozma nutq xususiyatlari Ona tili ta'limida yozma nutq ustida ishlamasdan, faqat og'zaki nutqni o'stirish hosil bo'lgan nutqiy ko'nikmalarining mustahkam bo'lmashligiga olib keladi. [] Bu fikrlardan anglashiladiki, mustaqil fikr yuritish, insonlar bilan bevosita muloqot o'rgangan bilimlarini o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olishida ona tili o'qituvchisi va ona tili fanini o'rni beqiyosdir.

Yozma nutq, gapirish kabi, produktiv faoliyat sanaladi. Biroq, ularning qator o'xshash jihatlari bo'lsa-da, keskin farqlari ham bor, ular muloqotning og'zaki va yozma shakllarda amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Avvalambor, muloqotning yozma shaklida yaratilayotgan nutqqa tuzatish kirituvchi omillar yo'qligini ta'kidlash kerak. Xususan, suhbatdoshning bevosita reaksiyasi bo'lmashligi, yozayotgan shaxs nutq ohanglaridan foydalana olmasligi, shuningdek, og'zaki muloqot shaklida muhim o'rin tutadigan imo-ishoralar va yuz ifodasining berilmashligi, Yozma nutqni o'stirish - o'quvchilarda o'z fikrini muloqot ehtiyojlariga ko'ra yozma ravishda to'g'ri ifodalash malakasini shakllantirish demakdir. Yozma nutq mustaqil shakllanmaydi, uni o'zlashtirish ta'lim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Biroq yozma nutq tinglab tushunish, o'qib tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq holda ularni rivojlantirish vositasi bo'lishi mumkin. Demak, yozma nutq og'zaki nutq singari mustaqil shakllanmas ekan, u maktab ta'limida bosqichma-bosqich o'zlashtiriladi.

Yozma nutq malakalarini hosil qilishning murakkabligi yozma nutq kengaytirilganlik, erkinlik va boshqarilish xususiyatlariga sababi ham ularni ishga tushirish zarurati bilan izohlanadi. Shuningdek, Yozma ravishda mustahkamlash nutg birliklari so'zning orfografik va grammatik shakllarini eslab olishga ko'maklashadi. Yozma nutgning erkinligi shundaki, yozayotgan shaxs zarur mazmun uchun mos til vositalarini mustaqil tarzda tanlaydi. Yozma nutq kengaytirilgan, chunki muloqot ishtirokchilari o'rtasida vositali aloqa boladi. Yozma muloqotda hamma narsa batafsil tushuntirigan bo'lishi kerak, chunki bunday muloqotda ishtirokchilar noverbal muloqot vositalaridan foydalana olmaydilar. Yozma nutqni o'stirish uchun o'qituvchi ta'lim maqsadlarini belgilab olishi zarur. Ta'lim maqsadlari o'quvchilarning yoshi, lingvistik bilimlari darajasi, ta'lim shakli va o'rganilayotgan mavzu xususiyatiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Yozish nutqiy ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarda ifodalovchanlik, ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bolalarga yozishning turli shakllari (matn, hikoya, insho, maqola, esse)ni o'rgatish kerak. Faqat nazariy ma'lumotlarni berish bilan cheklanmasdan, amaliy mashqlar va qiziqarli faoliyat orqali yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi yondashuvni qo'llash muhim. Bu nafaqat yozish ko'nikmasi, balki umumiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. "Logo" usuli xuddi shu maqsadni amalga oshirishda qo'l keladi.

"Logotip" yunon tilidan olingan bo'lib, "so'z" va "belgi" degan ma'noni bildiradi. Undan turli o'rinlar: bannerlar, ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda foydalaniladi. Istalgan narsa, shaxs, joy va jarayonni tanitishda asosiy vosita logo-tip. Bu usulda o'quvchilarga turli xil rangsiz logotiplar tasviri tarqatiladi. O'quvchilar avval ularni bo'yashi, so'ng darsda o'tilayotgan grammatik mavzu asosida yozma matn yaratishi kerak bo'ladi. Bu qiziqarli usul

orqali yozish ko'nikmasi rivojlantiriladi, shuningdek, tasviriy san'at fani bilan integratsiyaga erishiladi, ijodkor o'quvchilar aniqlanadi.

Quyida taqdim etilayotgan usullar — “Kalit so'z” Metodi, “Model asosida yozish” (tayyor andaza asosida qayta yozish) hamda “Fikr zanjiri” usuli — o'quvchini faollikka, izchillikka, mazmunli va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.

1-metod: “Kalit so'z” asosida matn tuzish

Maqsadi:

O'quvchilarning tanlangan mavzu bo'yicha asosiy tushunchani anglashini chuqurlashtirish, erkin va lo'nda fikr bildirish, so'z boyligini kengaytirish.

Mohiyati:

Tanlangan kalit so'zning har bir harfiga bog'liq holda, mavzuga oid kichik gaplar yoki fikrlar tuziladi. Bu usul mavzuni yoritishda ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Qo'llash bosqichlari:

1. O'quvchilar bilan birgalikda mavzuga mos kalit so'z tanlanadi (masalan: *OILA*, *DO'STLIK*)

2. So'zning har bir harfi ustun tarzida yoziladi.

3. Har bir harf asosida mazmunli jumla yoki ibora tuziladi.

Barcha fikrlar umumlashtirilib, yakuniy matn tahlil qilinadi.

Misol: *OILA*

O – Odamlari bir-biriga mehribon

I – Ishonch ustiga qurilgan

L – Lutf, sahoovat va muhabbat bilan yashnaydigan jamiyat

A – Aql va qalb uyg'unligida barhayot bo'lgan maskan

Natijalar:

O'quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Kichik matn tuzish ko'nikmasi shakllanadi. So'z va gapni to'g'ri tanlash, qisqa ifodalash malakasi mustahkamlanadi

2-metod: “Fikr zanjiri” (hikoyani davom ettirish)

Maqsadi:

O'quvchilarda mantiqiy bog'liqlikda hikoya tuzish, yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirish.

Mohiyati:

Berilgan boshlang'ich jumla asosida har bir o'quvchi fikrni uzmasdan navbatma-navbat davom ettirib, yakuniy hikoya tuzadi.

Bajarish bosqichlari:

1. O'qituvchi mavzuga mos kirish jumlasini beradi (masalan: “Bir kuni maktabdan qaytayotganimda g'aroyib hodisa sodir bo'ldi”).

2. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi yoki butun sinf bo'ylab zanjir shaklida ishlaydi.

3. Har bir o'quvchi hikoyani bitta jumla bilan davom ettiradi, avvalgi jumla bilan mantiqiy bog'liqlikni saqlaydi.

4. Belgilangan miqdordagi (masalan, 8-10) jumladan iborat hikoya tuziladi.

5. Guruhlar hikoyani taqdim etadi, birgalikda tahlil qilinadi.

Natijalar:

Mantiqiy fikrlash va bog'liqlikni saqlash malakasi shakllanadi.

Yozma nutqda izchillik, mazmunlilik ortadi.

Jamoaviy ish, boshqalarning fikrini inobatga olish ko'nikmasi rivojlanadi. Hikoya qilish orqali ozaki nutqga tayyorlov ham amalga oshadi

3-metod "Model asosida yozish" (andazaviy qayta yozish)

Maqsadi:

O'quvchilarning mavjud matn asosida izchil, asosli va ijodiy tarzda yozuv ishlarini bajarishiga erishish, strukturaviy fikrlash va tasavvur doirasini kengaytirish.

Mohiyati:

Tayyor matn asosida o'quvchi kontekstni o'zgartiradi, rollarni almashtiradi yoki janrni yangilaydi. Shu bilan birga, matn tarkibiy tuzilmasi saqlanadi.

Amalga oshirish usullari:

1. Kontekstni o'zgartirish

Tayyor hikoya beriladi

O'quvchidan so'raladi: "Agar bu voqea boshqa joyda yoki zamonda sodir bo'lsa, qanday bo'ladi

Masalan: "Sehrli qalpoqcha" sarguzashti o'rniga "Robot bolaning Marsdagi sarguzashti"

2. Rol almashtirish :Matndagi qahramonlar o'rnini o'zgartirish: bolaning o'rniga hayvon, kattalarning o'rniga o'yinchoq va h.k.

3. Janrni almashtirish

Hikoyani she'rga aylantirish yoki aksincha.

Hikoyaga yangi qahramon qo'shish.

Yakunni o'zgartirish (fojiali tugatish, kulminatsiyani chuqurlashtirish)

Kutilayotgan natijalar.

Tahliliy va ijodiy fikrlash shakllanadi.

So'z boyligi, sinonimlar va grammatik tuzilmalarni qo'llash kuchayadi.

Yozma nutqda yangicha yondashuv paydo bo'ladi.

Strukturaviy fikrlash va kompozitsion tuzilmani saqlash malakasi mustahkamlanadi.

Yozma nutq o'quvchining mustaqil fikrlash, izchil bayon, matn yaratish, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, yozma nutqqa o'rgatishda faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmasdan, o'quvchining tafakkurini faollashtiruvchi, erkin va ijodiy fikrlashga undovchi metodlardan foydalanish zarur. "Kalit so'z" va "Fikr zanjiri" kabi metodlar bevosita o'quvchini faol fikrlovchi subyektga aylantiradi, ularning yozma nutqdagi malaka va ko'nikmalarini samarali shakllantiradi. Ushbu metodlar o'qituvchining darsdagi yondashuvini boyitadi, o'quvchini esa fikr bildiruvchi, muloqotga kirishuvchi, mustaqil ijodkor sifatida tarbiyalaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayeva G.J. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2024. №8. B.371-377.
2. Gulshan Asilova. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. 2024. B.92
3. Komila Rajabova. Mo'jaz tadqiqot metodi. Til va adabiyot ta'limi. 1/2025. B.26

4. Абдуллаева, М. Х., Башарова, Г. Г., & Рахматова, О. К. (2019). Преимущества индивидуального подхода в образовательном процессе. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (145)), 88-90.
5. Kizi, K. G. S. (2023). A deep study of wael B hallaq's explaining views of islamic law. Asian Journal Of Multidimensional Research, 12(8), 7-10.

INNOVATIVE
ACADEMY